

## **9-mavzu: Xalqaro soliqqa tortish.**

### *Reja:*

- 1. Xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari, huquqiy asoslari.**
- 2. Jahon soliq kodeksini qabul qilish zarurati va ahamiyati.**
- 3. Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni tartibga solish.**

### **1. Xalqaro soliqqa tortishning asosiy tamoyillari, huquqiy asoslari.**

Jahon hamjamiyati iqtisodiy tizimlari integratsiyasi va tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi xorijiy mamlakatlar soliq tizimlarini o'zaro ta'siriga olib keldi. Turli malakatlarda soliqqa tortishni u yoki bu masalalariga bo'lgan yondashuvlarni bir biriga mos kelmasligi nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish ana shunday masalalardan biridir.

Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish deganda ikki yoki undan ortiq mamlakatda bir soliq to'lovchining faoliyati aynan bir xil yoki o'xshash soliq turi bilan bir vaqtning o'zida soliqqa tortish ifodalanadi.

Ikki tomonlama soliqqa tortishni belgilovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- soliqqa tortish ob'ektining o'xshashligi;
- soliqqa tortish sub'ektlarining o'xshashligi;
- soliq to'lash muddatining o'xshashligi;
- soliq to'lovining bir xilligi va boshqalar.

Har bir mamlakatda soliq qonunchiligini kengaytirish va huquqiy jihatdan mustahkamlash, shuningdek, tovar, xizmat va kapitalni eksport qiluvchilarga soliq imtiyozlari berish bilan bog'liq tadbirlarning umumiy yig'indisi mamlakatning tashqi soliq siyosati deyiladi. Ushbu siyosatning qaysi tomonga yo'nalishi muayyan vaziyatdan kelib chiqadi. U byudjet daromadlarini oshirish nuqtai nazaridan yoki eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadidan kelib chiqishi mumkin. Ammo, shu narsani yoddan chiqarish lozimki, bu sohada manyovrlashtirish imkoniyatlari ancha chegaralangan: yuqorida aytilganidek, hech bir mamlakat o'z fuqarolari yoki kapitali uchun boshqa mamlakatdan, mahalliy aholiga qo'llanilayotgan soliqqa tortishga nisbatan imtiyozliroq bo'lgan tartibni talab qilishga xaqli emas. Xuddi shuningdek, hech bir mamlakat o'z hududida faoliyat yuritayotgan xorijiy fuqaro va shaxslarga, soliq yukini mahalliy aholidan keskin farq qiluvchi nisbatlarda oshirishga xaqli emas. Bunday holatning yuz berishi,

mazkur mamlakatning xorijiy bozorlaridagi faoliyatiga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

Aksariyat mamlakatlar soliq qonunchiligida xorijiy shaxslar va kompaniyalarni soliqqa tortishning faqatgina umumiy tomonlari belgilab beriladi va ular keyinchalik hukumat ko'rsatmalarida, sud qarorlarida, ma'lum milliy odatlarda va boshqalarda aniqlashtiriladi.

Har bir mamlakat uchun xalqaro soliq munosabatlarini tartibga solinishida quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi:

- bir yoklama chora-tadbirlar yoki milliy soliq siyosatining chora-tadbirlari bo'lib, boshqa mamlakatlar hukumatlari bilan hech qanaqa kelishuvlarsiz amalga oshiriladi (mamlakatda faoliyat yuritayotgan xorijliklar va mamlakatning xorijda faoliyat yuritayotgan fuqaro va korxonalariga nisbatan soliq tartibining belgilanishi);

- shartnomaviy chora-tadbirlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama asosda (xalqaro kelishuv), yoki "soliqlarning garmonlashuvi" deb nomlanadigan kelishuvlar doirasida (ya'ni, ikki yoki undan ortiq shartlashayotgan mamlakatlarning milliy soliq siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida) gi chora-tadbirlar.

Hozirgi kunda, amalda yuzdan ortiq soliq kelishuvlari mavjud. Bundan tashqari, u yoki bu darajada mamlakatlar o'rtasidagi soliq munosabatlariga tegishli bo'lgan turli xil xalqaro kelishuvlar ham mavjud.

Umuman, soliq kelishuvlari bir nechta tur va ko'rinishga ega. Ulardan ayrimlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- ma'muriy yordam ko'rsatish bo'yicha kelishuvlar;
- "chegaralangan" soliq kelishuvlari;
- umumiy soliq kelishuvlari;
- hadya va merosdan olinadigan soliqlar bo'yicha kelishuvlar;
- ijtimoiy sug'urta to'lovlari bo'yicha soliq kelishuvlari va boshqalar.

Hozirda ushbu kelishuvlarning barchasi ko'pchilik vaziyatlarda yangi kelishuv shakli bo'lgan "Umumiy soliq kelishuvi" bilan almashtirilmoqda (ushbu soliq kelishuvi to'liqligicha "Ikki yoqlama soliqqa tortishni bekor qilish hamda daromad va kapitalni soliqqa tortish sohasidagi chetga chiqishlarga qarshi kurash bo'yicha kelishuv" deb nomlanadi va asosan, birinchi jahon urushidan so'ng, keng qo'llanila boshlangan).

## **2. Jahon soliq kodeksini qabul qilish zarurati va ahamiyati.**

Birlashgan millatlar tashkiloti u yoki bu xalqaro dasturlar asosida bozor islohotlarini amalga oshirayotgan davlatlarga ma'lum bir loyihalarni ishlab chiqish

va joriy etishda yordam berish hamda hamkorlik qilishni amalga oshiradi. Bunday hamkorlik yo'nalishlaridan biri - zamonaviy xalqaro iqtisodiy talablarga javob beradigan milliy soliq tizimining yuzaga kelishiga, shakllanishi va rivojlanishiga yordam berishdir. Aynan shunday chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida, ya'ni xalqaro soliq dasturi doirasida Jahon soliq kodeksini tayyorlash fikri yuzaga keldi. Ushbu Kodeksning asosiy maqsadi - islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlarga ilmiy asosda soliq munosabatlarini tashkil qilish, yagona terminologiya va yagona mazmundagi izohni yaratish imkoniyatlarini taqdim etishdir.

Jahon soliq kodeksi asoslari shaklidagi ushbu hujjat 1993 yilda tayyorlanib, nashrdan chiqarildi. Uning mualliflari Garvard universiteti (AQSh) mutaxassislari Uord M. Xassi va Donald S. Lyubik. Ushbu Kodeks asoslari 300 betdan iborat bo'lib, 591 ta modda va izohni o'z ichiga olgan.

Kodeksning kirish qismida mualliflar ko'pgina davlatlar tajribasidan o'tgan soliq tizimining zamonaviy ma'nosini ochib berishga harakat qilganliklarini yozishgan.

Jahon soliq kodeksi namuna sifatida bo'lishiga qaramasdan, unda soliq to'lovlarining aniq stavkalari, uning minimumlari va imtiyozlar berilgan.

Kodeks matni va unda berilgan stavkalar kodeksdan foydalanishni hohlovchi davlatlar uchun majburiy emas, balki tavsiyaviy tusga ega.

Milliy soliq qonunchiligi tayyorlanayotganda ushbu davlat mutaxassislari tomonidan mamlakatdagi aniq iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar inobatga olinishi kerak.

Kodeksda berilgan nizom alohida ahamiyatga ega. Nizomga ko'ra, soliq tizimi orqali iqtisodiy subsidiyalar berish to'g'ri subsidiya to'lovlariga nisbatan kam samaralidir. Imtiyoz turlari va engilliklarning ko'pligi, soliq imtiyozlarini nazorat qilishning qiyinligi sababli, soliq tizimini murakkablashtiradi va samaradorligini pasaytiradi, uning zarur bo'lgan egiluvchanlik xususiyatlarini yo'qotadi. Bundan kelib chiqib, kodeksda soliqlardan vaqtinchalik yoki doimiy ozod etish kabi imtiyozlar ko'zda tutilmaydi. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti xususiyatlarini hisobga olgan holda, Kodeks mualliflari fikricha, ushbu davlatlar daromadlarining asosiy qismi bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsizlar hamda korxonalar va tashkilotlar foydasiga soliq hisobiga shakllanadi. Bunday soliq tizimi soliqlarni undirish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy xarajatlar jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa nisbatan kam bo'ladi.

Tavsiya etilayotgan Kodeksdagi soliqlar tizimiga faqatgina yuqori daromadlarga ega bo'lgan aholi qismiga qo'llaniladigan jismoniy shaxslardan olinadigan individual daromad solig'i ham kiritilgan. Bu bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda asosan rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik davlatlarda individual daromad solig'ini rivojlangan davlatlardagi kabi keng miqyosda

qo'llash uchun etarli darajadagi ma'muriy va huquqiy mexanizmlar mavjud emasligi bilan izohlanadi. Individual daromad solig'i soliq tushumlari maqsadida emas, balki tenglik hissini qaror toptirish maqsadida joriy etiladi.

Jahon soliq kodeksini ishlab chiqqanlar, soliq qonunlarini tayyorlash va qabul qilish soliq islohotiga dastlabki qadamdir deb hisoblaydilar. Asosiysi, soliq apparatining samaradorligini yaratishda deb biladilar. Adolatli va yuqori salohiyatli soliq xizmatining mavjudligi soliq islohotidagi muvaffaqiyatlarning zaruriy shartidir.

Jahon soliq kodeksi asosiy soliq turlari bo'yicha 5 qismga bo'linib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda joriy etish uchun tavsiya qilinadi. Birinchi qism - daromad solig'i; ikkinchi qism - qo'shilgan qiymat solig'i; uchinchi qism - aksiz soliqlari; turtinchi qism - ko'chmas mulkka soliq; beshinchi qism - soliq ma'muriyati, deb nomlanadi.

### **3. Xalqaro ikki yoqlama soliqqa tortishni tartibga solish.**

Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etishning asosiy mexanizmlaridan biri ikki tomonlama soliq kelishuvlaridir. Soliq kelishuvlarining asosiy maksadi hamkor mamlakatlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikki yoqlama soliqqa tortishning barcha ko'rinishlariga barham berishdan iborat. Ushbu kelishuvlar ma'lum qoida va tadbirlar ketma-ketligini qat'iy tartibda amalga oshirishni ko'zda tutadi. Kelishuvlar ikki yoqlama soliqqa tortishga qanday qilib barham beradi?

Soliq kelishuvlari ikki yoqlama soliqqa tortishga barham berishning uch pog'onali tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Birinchi bosqichda, hamkor mamlakatlarda "rezident" va "daromad manbasi" qoidalaridan kelib chiqadigan ikki yoqlama soliqqa tortishga barham beriladi. Ushbu maqsadlarda kelishuvda ikki yoqlama rezidentlik va "moddiy" moddalar bo'yicha tortishuvlarni echishga qaratilgan qismlar mavjud bo'lib, ular tomonlardan biriga daromadlarning aniq turlari bo'yicha ma'lum soliqqa tortishda mutloq huquq beradi.

Ikkinchi bosqichda, "rezident" va "daromad manbasi" moddalar bo'yicha barcha munozaralar hal etilgandan so'ng, qolgan ikki yoqlama soliqqa tortishga barham beriladi. Bunday barham berish har bir mamlakatning ichki me'yorlari asosida ta'minlanadi. Yangi soliq kelishuvida esa, ushbu me'yorlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi ko'rib chiqiladi. Oxirgi holatda, ikki yoqlama soliqqa barham berish bo'yicha yangi tartib, kelishuv asosida joriy etilishi mumkin. Odatda, quyidagi usullardan biri qo'llaniladi: "ozod qilish" usuli yoki "soliq krediti" usuli. Soliq kelishuvi tuzilayotgan paytda tomonlar ushbu ikki usuldan birini tanlashi, yoki ularni ikkalasidan ham zaruriy paytlarda foydalanishi mumkin.

Ammo, shuni alohida ta'kidlash lozimki, soliq kelishuvlarida "soliq krediti" usulidan ko'proq foydalaniladi. Bu holatni hattoki, ichki soliqqa tortish tizimida ko'proq "ozod qilish" usulidan foydalanadigan mamlakatlarda ham kuzatish mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri "soliq krediti" usulida soliqlarni to'lashda xalqaro chetga chiqish imkoniyatlarining ancha pastligidir.

Uchinchi bosqichda, hamkor mamlakatlarda soliqqa tortiladigan daromadlarni turlicha aniqlash sababli kelib chiqadigan ikki yoqlama soliqqa tortishga barham beriladi. Bunday ikki yoqlama soliqqa tortish, odatda, soliq organlarining o'z vakolatlari doirasida soliqlarni undirish uchun soliq to'lovchilar daromadlarini qayta taqsimlash bo'yicha harakatlaridan kelib chiqadi. Aksariyat mamlakatlarda soliq organlariga bunday huquq ichki qonunchilikda ko'zda tutilgan bo'lib, tadbirkorlik daromadlari, foiz va royalti to'g'risidagi kelishuv moddalariga bilan tasdiqlanadi. Masalan, 1977 yilda qabul qilingan IXRT Shakliy konventsiyasining tadbirkorlik daromadlari to'g'risidagi moddalariga binoan, "doimiy faoliyat yurituvchi tashkilot"ning foydasi soliq ma'muriyati tomonidan xuddi shunday faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi korxonalar, tashkilotning foydasi kabi hisob-kitob qilinishi mumkin. Foiz va royalti xaqidagi moddada esa, kreditor va qarzdor o'rtasidagi alohida kelishuvlar natijasida kelib chiqadigan o'zgarishlarga barham berish to'g'risida so'z boradi. Ammo, o'z-o'zidan ma'lumki, agar biror mamlakat mahalliy korxonalariga nisbatan soliqqa tortiladigan daromadni yoki biror shaxsni, xorijiy shaxs foydasiga o'tkazgan va xarajat sifatida aks ettirilgan summasini "tiklasa", unda ushbu summani oluvchi xorijiy shaxs daromadlari bo'yicha kerakli o'zgarishlar amalga oshiriladi. Aks holda, birinchi mamlakat soliq organlarining bunday kvalifikatsiyani inobatga olmasligiga qaramasdan, xorijiy shaxs tomonidan olingan ushbu summa, xorijiy shaxsning daromadi sifatida qaytadan soliqqa tortilishi mumkin. Soliq kelishuvlari mavjud bo'lmagan sharoitda, birinchi mamlakatning soliq organlari, soliq to'lovchining bunday daromadlari, ikkinchi davlat hukumati tomonidan daromad sifatida tan olinmaydi va ushbu daromadlarni soliqqa tortish bazasidan chiqarish zarurligi bo'yicha iltimosnomasini ko'pchilik hollarda qondirmaydi.

Soliq kelishuvlari, ikki yoqlama soliqqa tortishga barham berish maqsadlaridan tashqari, muhim maqsad soliq to'lashdan chetga chiqish holatlariga qarshi kurashni ko'zlaydi. Ushbu sohada soliq kelishuvlari orqali soliq organlari hamkorligining asosi va tartibi belgilanadi. Shuning uchun ham, soliq kelishuvlarida daromadlarni yashirishga qarshi, chet elga daromadni yashirin tarzda o'tkazishga qarshi soliq organlarining birgalikdagi kurashi bo'yicha bir qator yo'riqnomalar kiritiladi. Bu "doimiy faoliyat yurituvchi tashkilot"ning daromadlarini tartibga solish bo'yicha yo'riq; assotsiatsiyalashgan korxonalar to'g'risidagi modda (bosh kompaniya va filiallar o'rtasida daromadlarni taqsimlash

bo'yicha tuzatishlar kiritishga imkon beradigan); alohida munosabatlar tufayli hamkorlar o'rtasida foiz to'lovlari va royalti bo'yicha soliqqa tortiladigan daromadlardagi "xatolarni" to'g'rilash bo'yicha shartlar va boshqalar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, boshqa asosiy masalalar bilan birga, soliqqa doir masalalarni ham o'z ichida oladigan bir qancha xalqaro kelishuvlar mavjud.

Birinchi, ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosini tashkil etuvchi keng tarqalgan kelishuvlar. Ushbu kelishuvlarda qoidaga binoan boshqa mamlakatning fuqaro va kompaniyalariga xuddi mahalliy fuqaro va kompaniyalar uchun joriy qilingan soliq tartibini joriy qilish to'g'risidagi yo'riqnomalar aks etadi. Ammo, shu narsa qayd etiladiki, har bir mamlakat o'z fuqarolariga va kompaniyalariga beradigan soliq imtiyozlarini boshqa mamlakat fuqarolariga va kompaniyalariga berishga majbur emaslar.

Ikkinchi, diplomatik va konsullik munosabatlarini o'rnatish bo'yicha kelishuvlar. Ushbu kelishuvlarda tomonlar diplomatik va konsullik idoralari hamda ularda faoliyat yuritayotgan shaxslarga beriladigan soliq imtiyozlarini o'zaro kelishadilar. Imtiyozlar hajmi, odatda, ushbu shaxslarning boshqa mamlakat hududida bo'lish maqsadlari va faoliyat doiralari bilan chegaralanadi. Mazkur imtiyozlar ro'yxati 1961 va 1963 yillarda qabul qilingan ko'p tomonlama diplomatik hamda konsullik vakolatxonalariga haqidagi Vena konventsiyalarida o'z aksini topgan.

Dunyoning aksariyat mamlakatlari ushbu konventsiyaga a'zo. Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi ikki xil kelishuvlarda ko'zda tutiladigan kelishuvlar, u yoki bu ko'rinishda, umumiy soliq kelishuvlarida ham inobatga olinadi.

Uchinchi, hamkor mamlakatdan olib kiriladigan tovar va xizmatlarga maksimal darajadagi qulay soliq muhitini yaratishga yo'naltiriladigan tartibni qo'llash bo'yicha, tomonlar o'rtasida tuziladigan savdo kelishuvi va shartnomalari. Soliqlar bo'yicha ta'sir etishga ko'ra, ushbu kelishuvlar, ko'pchilik holatlarda faqatgina boj to'lovlari bo'yicha keng tarqaladi. Ammo, ba'zi hollarda, ushbu kelishuvlar umumiy soliqqa ham tegishli bo'lishi hamda tashqi savdo faoliyatining boshqa me'yorlarini (valyuta bo'yicha, bank operatsiyalari bo'yicha va boshqalar) ham qamrab olishi mumkin.

### ***Yaponiya soliq tizimi***

Chet el soliq qonunchiligini urganuvchilari uchun Yaponiya soliq tizimi alohida qiziqish kasb etadi. Yaponiyaning barcha soliq daromadlarining 64% dan ortig'ini xukumatni moliyaviy qudratini ifodalovchi federal soliqlar tashkil etadi. Evropa mamlakatlaridan farqli ularoq, Yaponiya davlatida daromadni kuproq qismini daromad soliqlari–korporatsiyalarning foyda solig'i va jismoniy

shaxslarning daromad soliqlari tashkil qiladi.

Korporatsiyalarning foyda solig'i Yaponiyada milliy, prefektura va munitsipalitet byudjetlar xisobiga kelib tushadi. Soliqning milliy stavkasi 33,48%ni, prefektura soliqg'i milliy soliqning 5%ni, munitsipalitet solig'i esa-milliy soliq stavkasining 12,3%ni tashkil etadi. Shunday qilib, ushbu soliq buyicha olingan soliqlarning umumiy xajmi korporatsiya foydasining qariyb 40%ni tashkil qiladi. Yaponiyada kichik biznes uchun ushbu soliqning imtiyozli stavkalari xam kuzda tutilgan. Bu soliq buyicha soliqqa tortiladigan baza bulib, xalqaro buxgalteriya xisobi qoidalariga asosan aniqlanadigan korporatsiya foydasi xisoblanadi. Oxirgi yillar davomida korporatsiyalar foydasi solig'idan tushadigan tushum xajmi, milliy byudjet umumiy daromad xajmini, barcha tushumlarining chorak qismini tashkil etadi.

***Yaponiyadagi soliqqa tortiladigan daromad kategoriyalari tug'risida.***

Turli yillar davomida byudjet daromad xajmining 35 foiz dan 42 foizgacha ulushini jismoniy shaxslardan olinadigan soliq tashkil etgan. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i Yaponiya davlat byudjeti uchun katta ahamiyatga ega.

1-jadval

**Yaponiyada qabul qilingan jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari.**

Soliqqa tortiladigan daromad, mln. ien	Soliq stavkasi, %			
	Milliy	Prefektura	Munitsipalitet	Jami
1,6 dan kam	10	2	3	15
1,6-3,0	10	2	8	20
3,0-5,5	20	2	8	30
5,5-6,0	20	4	11	35
6,0-10,0	30	4	11	45
10,0-20,0	40	4	11	55
20,0dan yuqori	50	4	12	76

Izox: Soliqqa tortiladigan summalardan olinadigan chegirma darajalari turli soliq imtiyozlari tufayli barcha guruxlar uchun kuplab belgilari bilan farqlanadi. Shu sababli guruxlar buyicha soliq stavkasi va soliqqa tortiladigan daromad jadvalda kursatilgan kabi tug'ri kelishi shart emas.

Daromad solig'i ish xaqi, dexqonlar va erkin kasb egalari daromadlari, kuchmas mulkdan kelgan daromad (ijaraga berish) xamda dividendlar, foizlar, nafaqa va boshqalardan olinadi. Soliqqa tortiladigan daromadlar Yaponiyada 9 toifaga bulinadi:

1.Pul omonatlari buyicha foizlar.

- 2.Dividentlar.
- 3.Kuchmas mulkdan olingan daromad.
- 4.Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad.
- 5.Ish xaqi.
- 6.Pensiya va nafaqalar.
- 7.Bir martalik daromadlar.
- 8.Aralash xar tomonlama kelgan daromadlar.
- 9.Kapitaldan olinadigan daromad.

Bularning kupchiligi (foiz va dividendlardan tashqari) soliq tulashdan ozod etilgan yoki soliq imtiyozlari belgilangan. Bundan tashqari, daromadini kam kupligiga qaramasdan, xar bir Yaponiya fuqarosi *yashash solig'ini* (bir yilda 3200 ien) tulashi shart. Yaponiya amaliyotida oddiy yapon soliq tulovchisi me'yoridan ortiq soliq yukini kutarmayaptimi degan savol tugiladi. Ammo shuni xam inobatga olish kerakki, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda katta imtiyozlarni xam kuzda tutadi.

#### **Jismoniy shaxslarning daromad solig'idagi imtiyozlari.**

Urta darajadagi soliq tulovchi foydalanadigan asosiy soliq imtyozlari «bazaviy imtiyoz» (soliq tulovchi daromadining soliqqa tortilmaydigan minimal qiymati 350000 ienga teng) va xuddi shunday imtiyozlarning xotin yoki er xamda qaramoqg'ida bulgan barcha oila azolari uchun berilishi xisoblanadi. Bundan tashqari, quyidagi daromad turlari: ish xaqi, nafaqa, ijtimoiy sug'urta kabi daromad turlari maxsus soliq ozodliklariga ega. Yaponiya Moliya vazirligi xar bir soliq tulovchi uchun soliqqa tortiladigan bazani xisoblashda 5 ta imtiyoz va ozodliklarni taqdim etadi. Jismoniy shaxslar uchun daromad solig'iga nisbatan soliqqa tortiladigan eng kam miqdorini xisoblash tizimi quyidagi jadvalda berilgan.

Yaponiyada jismoniy shaxslar uchun daromad solig'i buyicha soliqqa tortiladigan eng kam miqdorning xisoblash tartibi

2-jadval

<b>Soliq tulovchi</b>	<b>Milliy byudjet</b>	<b>Maxalliy byudjet</b>
Bitta odam uchun	1075 ming ien	1032 ming ien
Er-xotin	1928 ming ien	1738 ming ien
3 ta azosi bulgan oila uchun	2484 ming ien	2230 ming ien
4 ta azosi bulgan oila uchun	3198 ming ien	2801 ming ien

Daromad solig'ini xisoblash uchun, soliq tulovchining turli manbaalardan



olgan daromadlari qushiladi va sungra daromadning umumiy summasidan turli chegirmalar (ijtimoiy sug'urta badallari, xayotni sug'urta qilish va nafaqa fondi, tibbiy xizmatga ketadigan xarajatlar xamda nogironlar, qariyalar, bevalar uchun maxsus chegirmalar) inobatga olingan xolda soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor chegirib qolinadi. Buning natijasida Yaponiyada 4 kishidan iborat bulgan oila uchun soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor qiymati AqSh, Germaniya, Angliya, Frantsiya kabi mamlakatlarga nisbatan ancha yuqoridir<sup>1</sup>.

Aniq va xususiy soliqdan ozod etishdan tashqari, soliq tizimiga ayrim muxim sabablarga kura, turli manbaalardan olingan soliqqa tortiladigan daromadlarga nisbatan, bir qator maxsus imtiyozlar xam mavjud:

- axolining turli qatlamlari daromadlarini tug'ri soliqqa tortish maqsadida soliq tulovchining soliqqa tortiladigan daromadlarini kamaytiradigan maxsus chegirma kiritilgan. Bu chegirma uz mexnatini sotish yuli bilan daromad oladigan yollangan ishchi uchungina qullaniladi. Chegirma miqdori maxsus aniqlanadigan shaxsiy xarajatlari (personal expenses) miqdoriga teng. Bu chegirmani kiritishdan maqsad bir tomondan yollanma mexnat kishilarini, ikkinchi tomondan tadbirkorlarni teng soliqqa tortishga erishishdir. Tadbirkorlar uzlarining shaxsiy xarajatlarning bir qismini «biznes xarajatlari xisobiga» boshqacha aytganda, tannarxga yozib quyadi va natijada undan soliq olinmaydi, qaysiki, yollanma mexnat shaxslari ushbu chegirma kiritilgunga qadar bundan maxrum edilar (bu esa Yaponiya soliq boshqarmasi nuqtai-nazaridan soliqqa tortishning adolat mezonlariga tug'ri kelmaydi). Shu sababli Yaponiya xukumi va soliq boshqarmasi tadqiqotlar utkazilib, uning natijasida yuqoridagi «adolatsizlik»ga barxam berish uchun yollanma mexnatdan daromad oladigan shaxslarning soliq manbai 28,6 % ga kamaytirilishi kerakligini aniqladi. Bu foiz Yaponiyada qonuniylashtirilgan.

- Bir qator maxsus yuriqnomalar soliqqa tortish maqsadlari uchun tijoratdan kelgan daromadlarni xam taqsimlashga imkon berdi. Tushgan foydadan barcha zarur xarajatlar, olib tashlangach , qolgan daromad, soliqqa tortish obekti bulib xisoblanadi. Soliq deklaratsiyasini tuldirayotgan soliq tulovchilariga soliqqa tortiladigan daromaddan soliq deklaratsiyasini tayyorlash uchun ketgan 100.000 ien miqdoridan katta bulmagan qiymatni olib tashlashga ruxsat berilgan. Xozirda bu miqdor 350.000 ienni tashkil kiladi.

- Yaponiyada bir xil yillik daromadga ega bulgan oila azolari (er-xotin) bir yoki ikki kishi ishlashidan qat'iy nazar turli xil daromad solig'ini tulaydilar. Zamonaviy Yaponiya soliq tizimi, er-xotin xar ikkalasi bir xil daromad olib ishlaydigan oilalarni qullab quvvatlaydi. Shuning uchun faqat bir kishi ishlaydigan

---

<sup>1</sup> Jane Fracknall-Hughes. The Theory, Principles and Management of Taxation: An introduction, Routledge Taylor and Francis Group, 2015

oilalar og'ir soliq yukini tulashga majburdirlar. Jadvalda bir kishi ishlaydigan va ikki kishi ishlaydigan oilalar tulaydigan soliq miqdori kursatilgan.

### **Oila daromadidan olinadigan soliq miqdori.**

Bir va ikki kishi ishlaydigan oilalar tomonidan tulanadigan soliq miqdori

3-jadval

Daromad shkalasi, Mln, ien	Bir kishi ishlaydigan oila		Ikki kishi ishlab, bir xil daromad oladigan oila	
	Soliq summasi	Soliq yuki darajasi, %	Soliq summasi	Soliq yuki darajasi, %
3	0	0	0	0
4	57500	1,4	57500	1,4
5	130500	2,6	130500	2,6
8	469000	5,9	384500	4,8
10	821000	8,2	560500	5,6
20	4282000	21,4	2836500	14,2
30	5577500	28,6	6182000	20,6
50	18077500	36,2	14177500	28,4

### ***Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i, meros va xadya soliqlari tug'risida.***

Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini mulk qiymatining 1,4% ni tashkil qiladigan yagona stavka buyicha tulaydilar. Yaponiyada mulkka egalik xuquqining bir shaxsdan ikkinchi shaxsga utish jarayonini soliqqa tortishga katta e'tibor beriladi. Mulknı boshqa shaxsga egalikka berish, meros, sovg'alar xamma vaqt soliqqa tortiluvchi ob'ektlar bulib kelgan.

Topshiriladigan xususiy mulknı soliqqa tortishning ikki asosiy shakli mavjud: sovg'a va vasiyatnoma. Bunga mos ravishda meros solig'i va sovg'a solig'i mavjud. quyidagi chizmada merosdan soliq olish ketma-ketligi kursatilgan.

Farzand, ota-ona, aka-uka yoki opa-singil bulmagan merosxurlar uchun meros solig'i stavkasi qushimcha 20 % ga oshadi, umumiy soliq stavkasi esa, ushbu qushimchalar qushilgan xolda merosxurning 75 % xaqiqiy ulushidan oshmasligi kerak.